MAXFIYLIK

# Maxfiylik siyosati

Tahrir 2.0 · 09.10.2026

«Qonun AI» platformasi (qonun.ai)

Ushbu Maxfiylik siyosati (bundan buyon — «Siyosat») «ADL TECH» mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR 313328699, manzil: Xorazm viloyati, Bog'ot tumani, «Oq Oltin» MFY, Istiqlol 1-tor ko'chasi, 57-uy; bundan buyon — «Ijrochi») tomonidan «Qonun AI» platformasi — qonun.ai veb-sayti va uning kichik domenlari, Telegram-bot, Telegram Mini App hamda iOS va Android mobil ilovalari (bundan buyon — «Platforma») foydalanuvchilarining shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlash tartibini belgilaydi.

Siyosat O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-son va «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Ijrochi shaxsga doir ma'lumotlar operatori hisoblanadi.

> Platformadan foydalanish, ro'yxatdan o'tish yoki to'lov qilish ushbu Siyosatga, shu jumladan 4-bo'limda ko'rsatilgan ma'lumotlarni chet eldagi texnologik hamkorlar orqali qayta ishlashga rozilikni anglatadi. Rozi bo'lmagan shaxs Platformadan foydalanmasligi lozim.

**Bandlar**


1. Qanday ma'lumotlar to'planadi
2. Qayta ishlash maqsadlari va asoslari
3. Sun'iy intellekt va ma'lumotlardan foydalanish
4. Ma'lumotlarni saqlash joyi va uchinchi shaxslarga berish
5. Qurilmada saqlanadigan ma'lumotlar va cookie
6. Saqlash muddatlari
7. Foydalanuvchi huquqlari va o'chirish
8. Xavfsizlik
9. Voyaga yetmaganlar
10. Siyosatga o'zgartirishlar va aloqa


## 1. Qanday ma'lumotlar to'planadi

1.1. **Hisob ma'lumotlari:** telefon raqami; Telegram yoki Google hisobi identifikatori, nomi va (mavjud bo'lsa) rasmi; F.I.Sh. va elektron pochta (ko'rsatilgan bo'lsa); ixtiyoriy profil ma'lumotlari (tug'ilgan yil, kasb).

1.2. **Xizmatdan foydalanish ma'lumotlari:** savollar matni; ovozli xabarlar va ularning matnga o'girilgan shakli; yuklangan hujjatlar, rasmlar va videolar; yaratilgan hujjat loyihalari; chatlar tarixi; foydalanish limitlari va sozlamalar.

1.3. **Mutaxassislar uchun qo'shimcha:** F.I.Sh., advokatlik litsenziyasi yoki diplom ma'lumotlari, ish joyi, mutaxassislik, profil rasmi va Mijozlar qoldirgan sharhlar.

1.4. **To'lov ma'lumotlari:** summa, sana, Tarif, to'lov tizimi identifikatorlari. Bank kartasi rekvizitlari Ijrochi tomonidan so'ralmaydi, qabul qilinmaydi va saqlanmaydi — to'lovlar to'lov tizimlarining

himoyalangan sahifalarida amalga oshiriladi.

1.5. **Texnik ma'lumotlar:** qurilma turi, operatsion tizim, brauzer, IP-manzil asosidagi taxminiy hudud, bildirishnoma tokenlari, texnik jurnallar (loglar) va cookie-fayllar.

1.6. **Joylashuv:** «Eng yaqin sud» va shunga o'xshash funksiyalar uchun aniq joylashuv faqat Foydalanuvchi ruxsati bilan va faqat so'rov vaqtida ishlatiladi; Foydalanuvchi o'rniga hudud tanlashi ham mumkin.

1.7. **Ruxsatlar (mobil ilova):** kamera, fotogalereya, mikrofon va fayllarga kirish faqat Foydalanuvchi rasm, ovoz yoki fayl yuborishni tanlagan paytda so'raladi. Bildirishnomalar ixtiyoriy va sozlamalarda o'chirilishi mumkin.

1.8. Ijrochi reklama identifikatorlari, kontaktlar ro'yxati va biometrik ma'lumotlarni to'plamaydi.

## 2. Qayta ishlash maqsadlari va asoslari

2.1. Ma'lumotlar quyidagi maqsadlarda qayta ishlanadi: xizmat ko'rsatish va Ommaviy oferta shartlarini bajarish; Foydalanuvchini identifikatsiya qilish va hisobni yuritish; to'lovlarni qayd etish; Mijoz so'rovini u tanlagan Mutaxassisga yetkazish; texnik yordam; xavfsizlik va suiiste'mollarning oldini olish; xizmat sifatini oshirish va xatolarni bartaraf etish; xizmatga oid xabarnomalar (javob tayyorligi, limitlar, obuna muddati, muddat eslatmalari) yuborish; qonunchilik talablarini bajarish.

2.2. Qayta ishlash asoslari: Foydalanuvchining roziligi; shartnomani (Ommaviy ofertani) bajarish zarurati; qonunchilikda belgilangan majburiyatlar.

2.3. Marketing xabarlari faqat Foydalanuvchining alohida roziligi bilan yuboriladi; ulardan istalgan vaqtda voz kechish mumkin.

2.4. Ijrochi Foydalanuvchiga nisbatan yuridik oqibat keltirib chiqaradigan avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilmaydi. AI javoblari faqat axborot xarakteriga ega.

## 3. Sun'iy intellekt va ma'lumotlardan foydalanish

3.1. Javob tayyorlash uchun Foydalanuvchi kiritgan matnlar, ovozli xabarlar, rasmlar va hujjatlar sun'iy intellekt va nutqni qayta ishlash xizmatlariga uzatiladi.

3.2. Foydalanuvchi so'rovlari uchinchi shaxs AI provayderlariga ularning modellarini o'qitish uchun berilmaydi. Ijrochi so'rovlardan faqat anonimlashtirilgan va umumlashtirilgan shaklda — qidiruv tizimi va javob sifatini oshirish, xatolarni tahlil qilish va sifatni o'lchash uchun foydalanishi mumkin; shaxsni aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlar bunday maqsadlarda ishlatilmaydi.

3.3. Foydalanuvchi parol, bank kartasi raqami, davlat siri, tijorat siri va boshqa shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini Platformaga kiritmasligi lozim. Kiritgan taqdirda oqibatlari uchun o'zi javobgar bo'ladi.

## 4. Ma'lumotlarni saqlash joyi va uchinchi shaxslarga berish

4.1. Platformaning asosiy ma'lumotlar bazasi O'zbekiston Respublikasi hududidagi serverlarda saqlanadi.

4.2. Xizmat ko'rsatish uchun ma'lumotlar quyidagi toifadagi texnologik hamkorlarga, faqat zarur hajmda va maxfiylik majburiyatlari ostida uzatilishi mumkin: sun'iy intellekt va nutqni qayta ishlash provayderlari; Telegram (Telegram orqali yuborilgan xabarlar uning qoidalariga muvofiq qayta ishlanadi); hosting, bildirishnoma va SMS provayderlari; to'lov tizimlari va banklar. Ushbu hamkorlarning ayrimlari O'zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan. Platformadan foydalanish orqali Foydalanuvchi ma'lumotlarining transchegaraviy uzatilishiga rozilik beradi. Amaldagi hamkorlar ro'yxati so'rov bo'yicha taqdim etiladi.

4.3. Ma'lumotlar quyidagi hollarda ham beriladi: qonunchilikda belgilangan asoslar bo'yicha vakolatli davlat organlariga; Foydalanuvchining roziligi yoki ko'rsatmasi bilan (masalan, Mijoz tanlagan Mutaxassisga so'rov mazmuni va kontaktlarini uzatish); Ijrochi huquqlari, Foydalanuvchilar xavfsizligi va Platformani himoya qilish zarur bo'lganda.

4.4. Ijrochi shaxsiy ma'lumotlarni sotmaydi va uchinchi shaxslar reklamasi yoki ilovalar orasida kuzatish (tracking) uchun bermaydi.

## 5. Qurilmada saqlanadigan ma'lumotlar va cookie

5.1. Ilova va sayt qurilmada sessiya, til, mavzu, bildirishnoma sozlamalari va chatlar ro'yxati kabi ma'lumotlarni saqlashi mumkin. Ilovani o'chirish qurilmadagi ma'lumotlarni o'chiradi, lekin serverdagi ma'lumotlarni o'chirmaydi (7-bo'lim).

5.2. Sayt qulaylik va statistika uchun cookie-fayllar va analitika vositalaridan foydalanadi; ular orqali umumlashtirilgan ma'lumotlar (sahifalar, qurilma turi, taxminiy hudud, o'tish manbasi) to'planadi. Foydalanuvchi brauzer sozlamalarida cookie'larni cheklashi mumkin; bunda ayrim funksiyalar cheklanishi mumkin.

## 6. Saqlash muddatlari

6.1. Kirish kodlari va bir martalik tokenlar — bir necha daqiqa; qurilma sessiyalari va bildirishnoma tokenlari — 180 kungacha.

6.2. Savollar, javoblar, chatlar va yuklangan fayllar — Foydalanuvchi ularni yoki hisobini o'chirgunga qadar.

6.3. To'lov, rozilik va hisob-kitob hujjatlari — qonunchilikda belgilangan muddatlarda, hisob o'chirilganidan keyin ham.

6.4. Hisob 6 oy davomida to'lovsiz va faoliyatsiz bo'lsa, Ijrochi uni va unga bog'liq ma'lumotlarni o'chirishga haqli.

## 7. Foydalanuvchi huquqlari va o'chirish

7.1. Foydalanuvchi haqli: o'z ma'lumotlari tarkibi va qayta ishlanishi haqida ma'lumot olish; ularni to'g'rilash; nusxasini olish; qayta ishlashga rozilikni qaytarib olish (bunda xizmat ko'rsatish to'xtatiladi); ma'lumotlarni va hisobni o'chirishni talab qilish; Ijrochi harakatlari ustidan vakolatli organga shikoyat qilish.

7.2. **Platformaning o'zida:** alohida chatlarni va ularga biriktirilgan fayllarni o'chirish; barcha qurilmalardan chiqish; bildirishnomalarni o'chirish mumkin.

7.3. **To'liq o'chirish:** hisobni o'chirish Platforma sozlamalari orqali yoki info@qonun.ai manziliga «Maxfiylik» mavzusi bilan murojaat qilish orqali amalga oshiriladi va 3 ish kuni ichida bajariladi; qonunchilikka ko'ra saqlanishi majburiy bo'lgan ma'lumotlar bundan mustasno. Murojaatda hisobni aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni ko'rsating, maxfiy hujjatlarni yubormang.

7.4. Boshqa murojaatlar 10 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

## 8. Xavfsizlik

8.1. Ijrochi ma'lumotlarni ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, oshkor qilish va yo'q qilishdan himoya qilish uchun tashkiliy-texnik choralar ko'radi: shifrlangan ulanish (HTTPS/TLS), kirish huquqlarini cheklash, maxfiy ma'lumotlarni xeshlangan yoki shifrlangan holda saqlash, zaxira nusxalash, texnik pudratchilar

bilan maxfiylik kelishuvlari.

8.2. **Xodimlar.** Ijrochi xodimlari va pudratchilari ma'lumotlarga faqat vazifasini bajarish uchun zarur hajmda kira oladi va maxfiylik majburiyatini olgan. Xodimlar Foydalanuvchi chatlarini faqat sifat nazorati, texnik nosozliklarni bartaraf etish yoki Foydalanuvchi murojaati bo'yicha ko'rishi mumkin.

8.3. Ma'lumotlar xavfsizligi buzilgan taqdirda Ijrochi qonunchilikda belgilangan choralarni ko'radi va ta'sirlangan Foydalanuvchilarni oqilona muddatda xabardor qiladi.

8.4. Hech qanday uzatish yoki saqlash usuli mutlaq xavfsiz emas. Foydalanuvchi o'z qurilmasi, Telegram va Google hisoblari hamda kirish ma'lumotlari xavfsizligi uchun o'zi javob beradi; ularning uchinchi shaxslar qo'liga o'tishi oqibatlari uchun Ijrochi javobgar emas.

## 9. Voyaga yetmaganlar

9.1. Platforma 18 yoshga to'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan. Ijrochi voyaga yetmaganlarning ma'lumotlarini ataylab to'plamaydi. Bunday ma'lumot aniqlansa, u o'chiriladi. Ota-ona yoki vasiy bu haqda 10-bo'limdagi manzillar orqali xabar berishi mumkin.

## 10. Siyosatga o'zgartirishlar va aloqa

10.1. Ijrochi Siyosatga o'zgartirish kiritishga haqli. Yangi tahrir qonun.ai/maxfiylik sahifasida e'lon qilingan kundan kuchga kiradi; muhim o'zgarishlar haqida Platforma orqali xabar beriladi. E'londan keyin Platformadan foydalanishni davom ettirish yangi tahrirga rozilik hisoblanadi.

10.2. Shaxsga doir ma'lumotlar operatori: «ADL TECH» MChJ, STIR 313328699, Xorazm viloyati, Bog'ot tumani, «Oq Oltin» MFY, Istiqlol 1-tor ko'chasi, 57-uy. Ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha murojaatlar: info@qonun.ai («Maxfiylik» mavzusi bilan) · Telegram @qonunai_admin · tel. +998 95 574 07 77.

«ADL TECH» MChJ · STIR 313328699 · Xorazm viloyati, Bog'ot tumani, «Oq Oltin» MFY, Istiqlol 1-tor ko'chasi, 57-uy · info@qonun.ai · +998 95 574 07 77

---

Shuningdek qarang: Foydalanish shartlari · Ommaviy oferta · Hisobni o'chirish.